

INKLYUZIV TRANSFORMASIYA: MOHIYATI VA IQTISODIY MAZMUNI

Muminov Nozim Gaffarovich

Alfraganus University professori,

iqtisodiyot fanlari nomzodi

ORCID:0000-0002-4376-9683

E-mail: n.muminov@afu.uz

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv transformatsiyaning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari tahlil qilindi hamda uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi amaliy jihatlari o'rganildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy o'sish va daromadlar tengsizligi o'rtasidagi bog'liqlik Jini koeffitsiyenti asosida baholandi. Inson kapitali, moliyaviy inklyuzivlik, institutsional muhit va raqamli iqtisodiyotning inklyuziv rivojlanishdagi roli aniqlashtirildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va ijtimoiy yo'naltirilganlikning kuchayishi kuzatilgani asoslandi. Tahlil natijalariga tayangan holda inklyuziv transformatsiyani yanada chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inklyuziv transformatsiya, iqtisodiy o'sish, Jini koeffitsiyenti, inson kapitali, moliyaviy inklyuzivlik, daromadlar taqsimoti

Аннотация

В статье проанализированы экономическая сущность и теоретические основы инклюзивной трансформации, а также изучены её практические проявления в экономике Узбекистана. В ходе исследования оценивалась взаимосвязь между экономическим ростом и неравенством доходов на основе коэффициента Джини. Определена роль человеческого капитала, финансовой инклюзии, институциональной среды и цифровой экономики в обеспечении инклюзивного развития. Обосновано, что проводимые в Узбекистане реформы способствовали расширению экономических возможностей и усилению социальной направленности развития. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по дальнейшему углублению инклюзивной трансформации.

Ключевые слова: инклюзивная трансформация, экономический рост, коэффициент Джини, человеческий капитал, финансовая инклюзия, распределение доходов

Abstract

The article analyzed the economic essence and theoretical foundations of inclusive transformation and examined its practical manifestations in the economy of Uzbekistan. The relationship between economic growth and income inequality was assessed using the Gini coefficient. The role of human capital, financial inclusion, institutional environment, and the digital economy in inclusive development was identified. It was substantiated that ongoing reforms in Uzbekistan contributed to expanding economic opportunities and strengthening the social orientation of development. Based on the findings, practical recommendations aimed at further enhancing inclusive transformation were developed.

Keywords: inclusive transformation, economic growth, Gini coefficient, human capital, financial inclusion, income distribution

KIRISH

XXI asrda iqtisodiy rivojlanishni baholashga bo‘lgan yondashuv sezilarli darajada o‘zgardi. An’anaviy ravishda iqtisodiy taraqqiyot asosan yalpi ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan baholangan bo‘lsa, bugungi kunda uning ijtimoiy natijalari - ya’ni yaratilgan boyliklarning jamiyat qatlamlari o‘rtasida qanday taqsimlanishi - tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan inklyuziv transformatsiya konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Inklyuziv transformatsiya iqtisodiy o‘rishni shunday tashkil etishni anglatadiki, bunda rivojlanish natijalari aholining keng qatlamlari uchun ochiq bo‘ladi, iqtisodiy imkoniyatlar tengroq taqsimlanadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida ko‘radi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan inklyuziv rivojlanish tamoyillariga mos ravishda olib borilmoqda. Iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiy imkoniyatlar doirasini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiy o‘rish bilan bir qatorda aholining turmush darajasini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida iqtisodiy o‘rish va daromadlar taqsimoti o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, moliyaviy va raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasini kengaytirish, hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish kabi yo‘nalishlar inklyuziv transformatsiyaning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi inklyuziv transformatsiyaning nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish, uning iqtisodiy mazmunini ochib berish hamda O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida inklyuziv rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot doirasida iqtisodiy o‘rish va tengsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlik, inson kapitalining roli, institutsional muhit va zamonaviy iqtisodiy omillarning inklyuziv rivojlanishga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv o‘rish nazariyasining eng mustahkam konseptual asosi Amartya Senning "imkoniyatlar yondashuvi" bilan bog‘liq [9]. Sen iqtisodiy taraqqiyotni faqat moddiy ne’matlar ko‘payishi sifatida emas, balki insonning real erkinliklarini - sog‘liqni saqlash, ta’lim, siyosiy ishtirok, ijtimoiy faollik - kengaytirish jarayoni sifatida ta’rifladi. Ushbu yondashuv YaIM ko‘rsatkichining yetarliligiga shubha tug‘dirib, rivojlanishni yanada ko‘p o‘lchamli baholash zaruratini asosladi.

Jon Rawlsning adolat nazariyasi inklyuziv siyosatni normativ jihatdan asoslashda muhim mezon taqdim etadi [11]. Rawlsning “farq prinsipi”ga ko‘ra, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar faqat jamiyatning eng kam ta’minlangan a’zolari ahvolini yaxshilashga xizmat qilganda qabul qilish mumkin. Bu tamoyil inklyuziv

transformatsiyada qashshoq qatlam farovonligini ustuvor mezon sifatida belgilashni oqlaydi.

Anthony Atkinson daromadlar tengsizligini kamaytirishning aniq siyosat uskunalarini tahlil qilib, progressiv soliqqa tortish, minimal daromad kafolatlari va inson kapitaliga davlat investitsiyalari orqali tizimli o'zgarishga erishish mumkinligini isbotladi [25]. Uning xulosalari O'zbekistondagi inklyuziv siyosat islohotlari uchun qiyosiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Simon Kuznetsning 1955-yildagi tadqiqoti iqtisodiy taraqqiyot va tengsizlik o'rtasidagi munosabatni inversiya U shakli orqali ta'rifladi [10]. Ushbu gipotezaga ko'ra, sanoatlashuv davrida dastlab tengsizlik kuchayadi, keyinchalik esa pasayadi. Biroq zamonaviy empirik tahlillar bu jarayonning o'z-o'zidan amalga oshmasligini - maqsadli siyosat zarurligini - ko'rsatdi.

Branko Milanovic global miqyosda mamlakatlar ichki tengsizligi barqaror o'sib borayotganini qayd etdi [12]. O'zbekiston uchun bu muhim: 2019-yilda 0.262 darajasiga tushgan Jini koeffitsiyenti 2020-2023 yillarda yana o'sish tendensiyasini ko'rsatdi, bu esa maqsadli inklyuziv siyosat zarurligini tasdiqlaydi.

Jozef Stiglitz tengsizlikning nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy samaradorlik muammosi ekanligini asosladi [2]. U tengsizlik ortib borganda ichki iste'mol bozori qisqarishini, ijtimoiy mobilitaning pasayishini va institutlar sifatining yomonlashishini o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida ko'rsatdi.

Acemoglu va Robinsonning "Mamlakatlar nega inqirozga yuz tutadi?" asari [1] inklyuziv transformatsiyaning siyosiy iqtisodiy poydevorini shakllantirdi. Ular mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy muvaffaqiyatini asosan institutsional tuzilma belgilashini ko'rsatdi: inklyuziv institutlar mulkiy huquqlarni keng qatlam uchun himoya qiladi, bozorga kirish imkoniyatini ochadi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

O'zbekiston 2017-yildan boshlab institutlarni inklyuzivlashtirish yo'lida izchil qadam tashladi. Byurokratik ruxsatnomalar sonining keskin kamayishi, valyuta operatsiyalarining erkinlashishi va "Biznes portali" orqali yagona raqamli xizmatlar tizimining joriy etilishi inklyuziv institutlar tomon siljishning amaliy ko'rinishlaridir [8]. Ronald Kouzning tranzaksiya xarajatlari nazariyasi [17] raqamli texnologiyalarning inklyuziv ahamiyatini tushunishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

OECD 2018-yilda "Barchaga imkoniyatlar" siyosat doirasini e'lon qildi [13], bunda inklyuziv o'sishni uch o'lchamda baholash tavsiya qilindi: daromad va moddiy yashash sharoitlari; ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologik xavfsizlik; barqarorlik va inqirozlarga chidamlilik. Jahon banki O'zbekiston bo'yicha 2022-yilgi Tizimli Mamlakat Diagnostikasida [6] inklyuziv rivojlanishning ikki asosiy cheklovini aniqladi: davlat va xususiy sektor o'rtasidagi noteng munosabatlar hamda insoniy kapital sifatining mintaqalar kesimida bir xil emasligi.

Gender inklyuzivligi inklyuziv transformatsiyaning tuzilmaviy o'lchamidir. Xalqaro valyuta jamg'armasining hisob-kitoblariga ko'ra [14], ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishdan kelib chiqadigan qo'shimcha YaIM o'simi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 15-20 foiz atrofida bo'lishi mumkin. Ushbu ko'rsatkich gender

tengsizligini iqtisodiy samaradorlikning katta salohiyat zaxirasi sifatida ko‘rishni talab qiladi. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tarmog‘ini kengaytirish, ayol tadbirkorlarga yo‘naltirilgan mikromoliyalashtirish dasturlari va mehnat qonunchiligini muvozanatlash strategik chora sifatida e‘tiborga molik [8].

Global Findex 2021-ma‘lumotlariga ko‘ra [22], O‘zbekistonda bank yoki moliya hisobvarag‘iga ega kattalar ulushi 2011-yildagi 23 foizdan 2021 yilda 44 foizga yetdi - deyarli ikki barobarga o‘shirildi. 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich taxminan 60 foizga yaqinlashmoqda. Debet kartalar soni 2017-yildagi 19 milliondan 2022-yil yarimiga kelib 30 millionga oshdi - 60 foizlik o‘shirildi. Masofaviy banking foydalanuvchilari esa 2017-2022 yillarda olti barobar ko‘payib, 25 million kishiga yetdi [5].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot inklyuziv transformatsiyaning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda uning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi amaliy namoyon bo‘lishini baholashga qaratilgan bo‘lib, kompleks nazariy va empirik yondashuv asosida olib borildi.

Tadqiqotning metodologik asosini bir necha o‘zaro bog‘liq ilmiy usullar tashkil etadi. Avvalo, inklyuziv rivojlanish nazariyasiga oid xalqaro ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilinib, Amartya Senning “imkoniyatlar yondashuvi”, Rawlsning adolat nazariyasi hamda Acemoglu va Robinsonning institutsional konsepsiyalari qiyosiy usulda umumlashtirildi. Ushbu yondashuv inklyuziv transformatsiyaning nazariy asoslarini aniqlashga xizmat qildi.

Empirik tahlil O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Jahon banki va Global Findex ma‘lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda iqtisodiy o‘shirish ko‘rsatkichlari va daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti o‘rtasidagi bog‘liqlik dinamik tahlil usuli orqali o‘rganildi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘shirish jarayonining inklyuzivlik darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda shuningdek qiyosiy va trend tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, turli yillar kesimida iqtisodiy o‘shirish va tengsizlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari solishtirildi hamda ularning o‘zaro mosligi baholandi. Ushbu usul inklyuziv rivojlanishning vaqt bo‘yicha dinamikasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Inklyuziv transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholashda ijtimoiy farovonlik funksiyasi qo‘llanildi:

$$W = Y \times (1 - G)$$

bu yerda:

W - ijtimoiy farovonlik darajasi;


Y - jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad;

G - daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti. Ushbu model iqtisodiy o‘shirish va tengsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tarzda baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, institutsional tahlil usuli yordamida O‘zbekiston iqtisodiyotidagi islohotlar inklyuziv va ekstraktiv institutlar nazariyasi doirasida baholandi. Mazkur yondashuv iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va bozorga kirish sharoitlarining yaxshilanish darajasini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv transformatsiyani to‘rt o‘zaro bog‘liq ustun orqali ifodalash mumkin: inson kapitali, institutsional muhit, moliyaviy inklyuzivlik va raqamli iqtisodiyot. Ushbu to‘rt ustun birgalikda daromadlar tengligi hamda barqaror iqtisodiy o‘shish maqsadini ta’minlaydi.



1-Rasm. Inklyuziv transformatsiyaning to‘rt ustunlik konseptual modeli¹

Ijtimoiy farovonlik funksiyasini quyidagi analitik ifoda orqali ifodalash mumkin: $W = Y \times (1 - G)$, bu yerda W - ijtimoiy farovonlik indeksi, Y - jon boshiga o‘rtacha real daromad, G - Jini koeffitsiyenti. Ushbu munosabat shuni ko‘rsatadiki, YaIM o‘shishi va Jini koeffitsiyentining bir vaqtda oshishi ijtimoiy farovonlikni kutilgandan sekin oshiradi. O‘zbekiston uchun bu 2022-2023 yillar dinamikasida yaqqol ko‘rinadi: YaIM 6.0-6.3 foiz o‘ssa-da, Jini 0.283-0.288 ga ko‘tarilishi W ning optimaldan past bo‘lishiga sabab bo‘ldi [18].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari 2010-2025 yillar uchun Jini koeffitsiyentining to‘liq dinamikasini taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlar milliy statistika metodologiyasi asosida shakllantirilgan va iqtisodiy tahlil uchun eng ishonchli manba hisoblanadi [18].

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1-jadval.
**O‘zbekistonda real YaIM o‘simi va Jini koeffitsiyenti dinamikasi
(2017-2025 yil)¹**

Yil	Real YaIM o‘simi, foizda	Jini koeff. (0-1)	O‘zgarish	Asosiy kontekst
2017	4.5	0.262	-0.002	Valyuta erkinlashdi; bozor islohotlari boshlandi
2018	5.4	0.262	0.000	Biznes muhiti yaxshilandi; eksport o‘sdi
2019	6.8	0.262	0.000	Soliq islohotlari; KO‘B faolligi oshdi
2020	1.6	0.276	0.014	COVID-19 ta‘siri; past daromad qatlamlar ko‘proq ziyon ko‘rdi
2021	8.0	0.273	-0.003	Tez tiklanish; transfertlar va ish joylari o‘sdi
2022	6.0	0.283	0.010	Yuqori daromadli sektor tezroq o‘sdi
2023	6.3	0.288	0.005	O‘sish yuqori; taqsimot tahlilni talab qildi
2024	6.5	0.286	-0.002	Ijtimoiy dasturlar samarasi ko‘rindi
2025	6.8*	0.279	-0.007	Ijobiy tendensiya; 2021-yil darajasiga qaytmoqda

1-jadval mazmunidan bir nechta muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, 2017-2019 yillarda - islohotlarning dastlabki tezlashuv davrida - Jini barqaror 0.262 darajasida ushlab turildi. Bu o‘shish va taqsimotning bir vaqtda muvozanatlashuviga erishilganini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, 2020 yilgi COVID-19 ta‘siri Jinini 0.014 ga oshirdi - bu past daromadli qatlamlar pandemiyadan ko‘proq jabr ko‘rganini anglatadi. Uchinchidan, 2021 yilgi tez tiklanish (8.0%ga o‘shish) Jinini 0.003 ga pasaytirdi. To‘rtinchidan, 2022-2023 yillardagi Jini o‘shishi inklyuziv siyosatni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Beshinchidan, 2024-2025 yillardagi ijobiy tendensiya - Jini 0.286 dan 0.279 ga tushishi - davlat ijtimoiy dasturlarining samarasini tasdiqlamoqda.

Acemoglu va Robinson tasnifiga asoslanib [1], O‘zbekistondagi institutsional o‘zgarishlarni inklyuziv institutlar yo‘nalishida baholash mumkin. 2017 yildan boshlab byurokratik ruxsatnomalar soni kamaytirildi, valyuta operatsiyalari erkinlashtirildi va “Biznes portali” raqamli platforma joriy etildi. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra [18], 2018-2023 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik va o‘rta korxonalar soni sezilarli oshdi.

2-jadval.
Inklyuziv va ekstraktiv institutlar: qiyosiy tavsif va O‘zbekiston holati²

Belgi	Inklyuziv institutlar	Ekstraktiv institutlar	O‘zbekiston (2017-2024)
Mulkiy huquq	Keng qatlam uchun himoyalangan	Faqat elita uchun ishonchli	Kuchaytirilmoqda [8]
Bozorga kirish	To‘siqsiz, raqobatli muhit	Litsenziya va monopoliya to‘siqlari	Litsenziyalar soni qisqardi [8]

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). Aholi turmush darajasi: Jini koeffitsiyenti, SDMX (Kod 1700). <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2> [18]; World Bank WDI [22].

² Manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Belgi	Inklyuziv institutlar	Ekstraktiv institutlar	O‘zbekiston (2017-2024)
Innovatsiya	Yaratuvchi yo‘q qilish rag‘batlanadi	Status-quo himoyalanaadi	Texnopark, startap dasturlari [18]
Resurslar taqsimoti	Bozor mexanizmi orqali	Siyosiy aloqalar orqali	Qisman; islohotlar davom etmoqda
Uzoq muddatli natija	Diversifikatsiya va barqaror o‘shish	Turg‘unlik xavfi	YaIM diversifikatsiyalanmoqda

Moliyaviy inklyuzivlik inklyuziv transformatsiyaning eng o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlaridan biridir. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan raqamli moliya islohotlari tufayli jiddiy ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda [5].

MUAMMO	SIYOSAT CHORASI	KUTILGAN NATIJA	MAQSAD KO‘RS. 2030
Jini 0.279 (2025-yil) Daromad tafovuti barqarorlashishi zarur	Progressiv soliq elementlari past daromad uchun imtiyozlar	Quyi kvintil daromadlari nisbatan tez o‘sadi	Jini \leq 0.260 (2019 darajasiga qaytish va pastga)
Moliyaviy qamrov: Qishloq hududlarda past qolmoqda	Mobil/agent banking, mikromoliya raqamlashtirish	KO‘B kredit imkoniyati kengayadi, tadbirkorlik o‘sadi	Bank qamrovi > 75% (Global Findex maqsadi)
Inson kapitali hududiy farqi: Toshkent va viloyatlar	Kapitation model ta‘lim, raqamli ko‘nikmalar markazi qishloqlarda	Viloyat HDI farqi qisqaradi, mehnat unumdorligi o‘sadi	HDI balanslanishi barcha viloyatlarda o‘rtacha ta‘lim
Gender faollik tafovuti: ayollar	MTT tarmg‘ini kengaytirish ayol tadbirkorlik dastur, gender statistikasi	Ayollar iqtisodiy faolligi oshadi qo‘shimcha YaIM potentsiali (IMF)	Ayollar ishtiroki > 55% (Markaziy Osiyo o‘rtacha)

2-Rasm. Inklyuziv siyosat choralari va 2030 maqsad ko‘rsatkichlari matritsasi¹

Ronald Kouz nazariyasiga ko‘ra [17], bozorga kirish xarajatlari qanchalik past bo‘lsa, bozor ishtirokchilari doirasi shunchalik keng bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar bu xarajatlarni ma‘lumot asimmetriyasini bartaraf etish, vositachilarni qisqartirish va koordinatsiya xarajatlarini pasaytirish orqali kamaytirib, inklyuziv transformatsiyaning samarali vositasiga aylanadi. O‘zbekistonda 2022-yilga kelib POS-terminallar soni 430 000 dan ortdi va ular orqali yillik aylanma YaIMning 20 foiziga - 120 trillion so‘mga - teng bo‘ldi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari inklyuziv transformatsiya zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning samarali va istiqbolli modeli ekanligini tasdiqlaydi. Iqtisodiy o‘shishning sifat jihatidan boyishi, uning natijalaridan aholining keng qatlamlari

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

manfaatdor bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar inklyuziv rivojlanish tamoyillariga mos ravishda izchil davom etayotganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy faollikni oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va raqamli imkoniyatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy o‘shishning ijobiy natijalari tobora kengroq qatlamlarga yetib bormoqda. Bu esa inklyuziv transformatsiya jarayonining amaliy natijalari shakllanayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar, moliyaviy va raqamli imkoniyatlarning kengayishi hamda institutsional muhitning yaxshilanishi inklyuziv rivojlanishning asosiy tayanch omillari hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi aholining turli qatlamlari uchun o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini yaratmoqda.

Shu asosda inklyuziv transformatsiyani yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, inson kapitalini rivojlantirishni izchil davom ettirish orqali iqtisodiy o‘shishning sifatini oshirish mumkin. Ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar uzoq muddatda yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, hududiy rivojlanish muvozanatini mustahkamlash iqtisodiy imkoniyatlarning yanada kengayishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat ichidagi iqtisodiy faollikni yanada uyg‘unlashtiradi.

Uchinchidan, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘shish natijalarini kengroq aholi qatlamlariga yetkazish imkoniyati ortadi.

To‘rtinchidan, moliyaviy va raqamli inklyuzivlikni rivojlantirish iqtisodiy jarayonlarga keng ishtirokni ta‘minlab, yangi imkoniyatlar yaratadi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish orqali aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish mumkin.

Inklyuziv transformatsiya O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta‘minlashda muhim strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan izchil siyosat mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Business. <https://www.jstor.org/stable/41653628>
2. Stiglitz, J. E. (2012). The Price of Inequality. W.W. Norton & Company. <https://wwnorton.com/books/the-price-of-inequality/>
3. Knight, D., Pimhidzai, O., & Uochi, I. (2024). Charting Uzbekistan’s path to poverty reduction. World Bank Blogs. <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>

4. CERR. (2025). Analysis of Poverty Levels and Household Incomes in Uzbekistan in 2025. Review.uz. <https://review.uz/en/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2025-goda-infografika>
5. World Bank. (2022). From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan. <https://blogs.worldbank.org/en/psd/livestock-lifelong-savings-improving-financial-inclusion-uzbekistan>
6. World Bank. (2022). The Second Systematic Country Diagnostic for Uzbekistan. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/37486>
7. UNDP. (2024). Human Development Report 2023-24: Breaking the Gridlock. New York. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2023-24>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevral PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
9. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/development-as-freedom-9780198297581>
10. Kuznets, S. (1955). Economic Growth and Income Inequality. The American Economic Review, 45(1), 1-28. <https://www.jstor.org/stable/1811581>
11. Rawls, J. (1971). A Theory of Justice. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674000780>
12. Milanovic, B. (2016). Global Inequality: A New Approach for the Age of Globalization. Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674737136>
13. OECD. (2018). Opportunities for All: OECD Framework for Policy Action on Inclusive Growth. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/inclusive-growth/>
14. IMF. (2023). Uzbekistan: 2023 Article IV Consultation. <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2023/12/15/Uzbekistan-2023-Article-IV-Consultation-542967>
15. Asian Development Bank. (2023). Uzbekistan: Country Partnership Strategy. <https://www.adb.org/countries/uzbekistan/overview>
16. Romer, P. M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71-S102. <https://www.jstor.org/stable/2937632>
17. Coase, R. H. (1960). The Problem of Social Cost. Journal of Law and Economics, 3, 1-44. <https://www.jstor.org/stable/724810>
18. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). Aholi turmush darajasi: Jini koeffitsiyenti, SDMX (Kod 1700). <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Yillik Hisobot 2023. <https://www.cbu.uz/uz/press-center/annual-report/>
20. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Iqtisodiy ko‘rsatkichlar. <https://mf.uz/uz/statistic/>
21. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94. <https://www.jstor.org/stable/1884513>

22. World Bank Open Data / Global Findex Database. (2021-2024). Gini index, financial inclusion - Uzbekistan. <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan> | FRED: <https://fred.stlouisfed.org/series/SIPOVGINIUZB>
23. Acemoglu, D., Johnson, S., & Robinson, J. A. (2001). The Colonial Origins of Comparative Development. *American Economic Review*, 91(5), 1369-1401. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/aer.91.5.1369>
24. Lucas, R. E. (1988). On the Mechanics of Economic Development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3-42. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0304393288901687>
25. Atkinson, A. B. (2015). *Inequality: What Can Be Done?* Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674504769>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**